

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL  
METODLARNING TA'SIRI

THE IMPACT OF INTERACTIVE METHODS ON THE DEVELOPMENT OF  
COMMUNICATIVE COMPETENCE.

Toshtemirova Sarvinoz Obidovna

*Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti*

Тоштемирова Сарвиноз Обидовна

*Магистрант Самаркандского государственного педагогического института*

Toshtemirova Sarvinoz Obidovna

*Master's student at Samarkand State Institute of Pedagogy*

**Annotatsiya:** Maqolada kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda interfaol metodlarning roli va ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda o'quvchilarning nutqiy, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga interfaol metodlarning samaradorligi ko'rsatildi. Interfaol usullar – diskussiya, rol o'yinlari, debatlar va kichik guruhli ishlash – o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini oshiradi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda interfaol metodlarni tizimli qo'llash zarurligini ilmiy asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, raqamli ta'lim, pedagogik yondashuv

**Аннотация:** В статье анализируется роль и влияние интерактивных методов на формирование коммуникативной компетентности. Показана эффективность интерактивных методов в развитии речевой, социальной и культурной компетентности учащихся. Интерактивные методы – дискуссии, ролевые игры, дебаты и работа в малых группах – способствуют развитию самостоятельного мышления, навыков сотрудничества и коммуникации. Результаты исследования подтверждают необходимость систематического применения интерактивных методов в педагогической практике.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, интерактивные методы, образовательный процесс, цифровое образование, педагогический подход

**Abstract:** The article analyzes the role and impact of interactive methods in developing communicative competence. The study demonstrates the effectiveness of interactive methods in enhancing students' speech, social, and cultural competence. Interactive methods – discussions, role-plays, debates, and small group work – foster independent thinking, cooperation, and communication skills. The results confirm the need for systematic implementation of interactive methods in pedagogical practice.

**Keywords:** communicative competence, interactive methods, educational process, digital education, pedagogical approach

**Kirish**

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi – bu faqat nutqiy yoki til bilimlarini egallashdan iborat emas, balki o'quvchining muloqot, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarini kompleks tarzda rivojlantirishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetensiya shaxsning jamiyatda samarali muloqot qilish, fikrini aniq va lo'nda ifodalash, boshqalar bilan

hamkorlik qilish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan bo'lish qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli, pedagogik amaliyotda bu kompetentsiya o'quv jarayonining asosiy maqsadi sifatida qaraladi.

An'anaviy ta'lim usullari (ma'ruzalar, eslatmalar, yozma topshiriqlar) ko'pincha passiv o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, bunda o'quvchi faqat ma'lumotni qabul qiluvchi yoki tinglovchi vazifasini bajaradi. Bunday yondashuvda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish yetarli darajada amalga oshmaydi. Shu bilan birga, an'anaviy metodlar o'quvchilarni guruhda ishlash va bir-biri bilan muloqot qilish jarayoniga faol jalb qilmaydi, bu esa ularning ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, pedagogik amaliyotda interfaol metodlarni qo'llash ayniqsa muhimdir. Interfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvni qo'llashga va turli muloqot vaziyatlarida samarali harakat qilishga rag'batlantiradi. Masalan, diskussiyalar va muhokamalar o'quvchilarga o'z fikrini asoslash, boshqalar bilan argumentlar orqali muloqot qilish imkonini beradi. Rolli o'yinlar va debatlar esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqot ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi. Shu tarzda interfaol metodlar kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish jarayonini samarali, tizimli va uzluksiz qiladi va pedagogik jarayonda o'quvchilarning nutqiy, ijtimoiy va madaniy kompetentsiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish, ularni muloqotga faol jalb qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

### Asosiy qism

Zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish interfaol metodlarning yangilanib borishini taqozo etadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari, axborot muhitining kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi interfaol metodlarning yangi shakllarini joriy etishni talab etmoqda. Ushbu metodlar o'quvchilarning nafaqat nutqiy faolligini, balki tanqidiy va kreativ fikrlashini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

**“Debat texnologiyasi”** kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda eng samarali zamonaviy metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali o'quvchilar muayyan mavzu yuzasidan qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qiladilar, dalillar keltiradilar va mantiqiy xulosa chiqaradilar. Debat jarayoni muloqot madaniyati, nutq ravonligi va tinglash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

**“Case-study”** (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) metodi o'quvchilarni real hayotga yaqin bo'lgan vaziyatlar asosida fikrlashga undaydi. Mazkur metod davomida ta'lim oluvchilar muammoni aniqlash, yechim variantlarini muhokama qilish va jamoa oldida o'z fikrini asoslab berish orqali kommunikativ kompetentsiyani amaliy jihatdan rivojlantiradilar. Bu metod muloqotning mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

**„Teskari sinf” metodi** ham kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodda o'quvchilar nazariy materialni mustaqil o'zlashtiradi, dars jarayonida esa muhokama, savol-javob va guruhli ishlarga ko'proq vaqt ajratiladi. Natijada dars davomida muloqot faolligi ortadi, o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qilishga odatlanadilar. Teskari sinf metodida dars vaqti an'anaviy ma'ruza shakliga emas, balki savol-javoblar, bahs-munozaralar, kichik guruhlarda ishlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga ajratiladi. O'quvchilar oldindan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarga tayangan holda o'z fikrlarini erkin ifodalaydilar, tushunchalarni izohlaydilar va bir-birining fikriga munosabat bildiradilar. Natijada og'zaki nutq faolligi kuchayib, muloqot jarayoni tabiiy va samarali kechadi. Teskari sinf metodining yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Darsga tayyor holda kelgan o'quvchi muloqot jarayonida faol ishtirok etadi, o'z fikrini bildirishdan cho'chimaydi

va mustaqil pozitsiyani egallaydi. Bu holat kommunikativ to'rsiqlarni kamaytirib, muloqot madaniyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

„**Loyiha asosida ta'lim**” metodi o'quvchilarning uzoq muddatli hamkorlikda ishlashini ta'minlaydi. Loyiha ustida ishlash jarayonida ta'lim oluvchilar rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, natijalarni taqdim etish orqali doimiy muloqotga kirishadilar. Bu esa kommunikativ kompetentsiyaning ijtimoiy va professional jihatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### Xulosa

Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu jarayonda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. An'anaviy ta'lim usullari o'quvchining passiv ishtirokiga asoslangan bo'lsa, interfaol metodlar – debat, keys-stadi, teskari sinf va loyiha asosidagi ta'lim – o'quvchilarni faol muloqotga, mustaqil fikrlashga va hamkorlikda ishlashga undaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy va madaniy kompetentsiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi, o'z fikrini himoya qilish va boshqalarni tinglash madaniyatini shakllantiradi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida interfaol metodlarning yangi shakllari (teskari sinf, onlayn hamkorlik) ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois pedagogik amaliyotda interfaol metodlarni tizimli va izchil qo'llash o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etilishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Jo'rayev R.X., Tolipov O'.Q. Pedagogik kompetensiya va kreativlik. – Toshkent: Fan, 2015. – 256 b.
4. Xalilova D.N. Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni // Pedagogik mahorat. – 2020. – № 4. – B. 45–49.
5. G'ulomov A., Qodirova M. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 142 b.
6. Qosimova M. Rol o'yinlari va ularning o'quvchilar muloqot ko'nikmalariga ta'siri // Ta'lim va taraqqiyot. – 2021. – № 2. – B. 33–37.
7. Bekmurodov M., Jo'rayev R. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 208 b.